



**SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF MEANS OF
EXPRESSING THE CONCEPT OF KINSHIP**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10142868>

Ulikova Mavludakhon

teacher,

Andijan State Institute of Foreign Languages

Andijan, Uzbekistan

Ulikhova -1990@gmail.com

ANNOTATION

In world linguistics, the cognitive concept is considered to be human activity, first of all, as a system of information reception, processing, storage and use of this information according to the situation. A concept is any discrete meaningful unit of the collective consciousness, which is reflected in the national memory of the language speakers in the form of a known substratum. Naturally, as in all other cognitive sciences, in cognitive linguistics, its main category is "concept", although it is a multifaceted mental-perceptual phenomenon. Among other things, our study is one of such studies, which consists in researching the linguocultural and linguopragmatic features of the means of expression of the concept of blood relatives.

Key words

concept of cognitology, cognitive-semiological theory, ideas about the world, discrete meaningful unit...

**QO'N-QARINDOSHLIK KONSEPTINI IFODA VOSITALARINING
SHAKLLANISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**

Uliqova Mavludaxon

O'qituvchi,

Andijon davlat chet tillari instituti

Andijon, O'zbekiston

Uliqova -1990@gmail.com

ANNOTATSIYA

Jahon tilshunosligida kognitologiy tushunchasi inson faoliyatiga, birinchi navbatda, axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash hamda shu axborotdan vaziyatga muvofiq foydalanish tizimi sifatida qaraladi. Konsept jamoaviy ongning



har qanday diskret mazmuniy birligi bo'lib, u til egalarining milliy xotirasida bilingan substrakt shaklida aks ettiradi. Tabiiyki, boshqa barcha kognitiv fanlardagi kabi, kognitiv tilshunoslikda ham uning asosiy kategoriyasi bo'lib "konsept" xizmat qiladi, vaholanki u ko'p qirrali aqliy - idrokiy hodissadir. Shu jumladan, bizning tadqiqotimiz shu kabi tadqiqotlardan biri bo'lib, qon-qarindoshlar konseptini ifoda vositalarining linguokulturologik va linguopragmatik hususiyatlarini tadqiq etishdan iboratdir.

Kalit so'zlar

kognitologiya tushunchasi, kognitiv-semiologik nazariyasi, olam haqidagi tasavvurlar, diskret mazmuniy birligi...

Jahon tilshunosligida kognitologiy tushunchasi inson faoliyatiga, birinchi navbatda, axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash hamda shu axborotdan vaziyatga muvofiq foydalanish tizimi sifatida qaraladi. F.Usmonov rus tilshunos olimi N.F.Alefirenkoning tilshunoslikda so'zning kognitiv-semiologik nazariyasi vujudga kelishida, strukturalizmdan farqli o'laroq, til faktlari nolisoniy tabiatga ega faktlar bilan izohlanishi mumkin ekanligining tan olinishi turtki bo'lganligi haqidagi fikrlarini keltiradi[5]. "Inson ongida in'ikos topgan olam haqidagi tasavvurlar xususida so'z yuritgan olimlar uni turli atamalar bilan ataydilar. Masalan, B.Uorf [4], G.Kolshanskiylar olam manzarasi[5], D.Potebnya olam obrazi[6] , G.Gachev milliy kosmos yoki Kosmo-Psixo-Logos[6] atamalaridan foydalanadi. G.Gachevda "kosmos" so'zi o'zining tub - "olam tuzilishi" ma'nosida qo'llanadi".

A.P.Babushkin[1] kognitiv semasiologiya uchun konseptning quyidagi ta'rifini taklif etadi: "Konsept jamoaviy ongning har qanday diskret mazmuniy birligi bo'lib, u til egalarining milliy xotirasida bilingan substrakt shaklida aks ettiradi". Tushunchadan farqli o'laroq konsept kognitiv ongning obrazli birligi sifatida sxema, freym, ssenariy kabilar shaklida namoyon bo'ladi,-deb fikrlarni keltiradi tilshunos olim.

Kognitiv tilshunoslikdagi mushohada qilishning muhim jarayonlari, ya'ni konseptuallashtirish va kategoriyalashishtirish jarayonlari haqida gapirar ekan, YE.S. Kubryakova shunday deydi: "Konseptuallashtirish jarayoni inson tajribasi - bilimlari tarkibi (majmuasi)sining mayda (kichik, minimal) mazmundor birliklarini ajratish (farqlash)ga qaratilgan bo'lsa, kategoriyalashishtirish jarayoni o'xshash va ayniyat birliklarini bir biridan farqlab, turlashtirib va xillashtirib, ularni nisbatan yirikroq bo'lgan turkumlarga, to'g'rirog'i kategoriyalarga birlashtirishga qaratilgandir"[3]. Bu o'rinda tilda so'zlovchi (yozuvchi)ning tashqi (ob'ektiv) olamni qay tarzda his qilishi, idrok etishi, ayni bir tilning tashuvchilari bo'lgan bir xalqda ob'ektiv olam manzarasining shakllanishida ob'ektiv va sub'ektiv



omillarning qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lishi, shuningdek tilda muloqot olib boruvchi mazkur etnos mavjud ob'ektiv borliqni qanday til vositalari, ya'ni verbal vositalar orqali shu tilga xos til manzarasi orqali voqelantirilish usullari va lisoniy ifodalash texnikalarini o'rganishi hamda tadqiq qilishi muhim rol o'ynaydi[1].

Tabiiyki, boshqa barcha kognitiv fanlardagi kabi, kognitiv tilshunoslikda ham uning asosiy kategoriyasi bo'lib "konsept" xizmat qiladi, vaholanki u ko'p qirrali aqliy - idrokiy hodissadir. To'g'ridan-to'g'ri konseptni shakllantiruvchilari bo'ladi, ular konseptni o'rganishning konseptual, perseptiv, pragmatik va tasviriy-madaniy tomonlarini tashkil etadi. Ye.S.Kubryakovaning fikriga ko'ra "konsept - mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinisdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir"[3]. Bundan ko'rinib turibdiki, konsept ko'ng ko'lamdagi tushuncha bo'lib, har bir tadqiqotchiga konseptosfera doirasida tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu jumladan, bizning tadqiqotimiz shu kabi tadqiqotlardan biri bo'lib, qon-qarindoshlar konseptini ifoda vositalarining linguokulturologik va linguopragmatik hususiyatlarini tadqiq etishdan iboratdir. Tadqiqotimizning asosiy arhisemasi qon-qarindoshlikni tashkil etganligi sababli, avvalambor biz o'zbek tilining izohli lug'atida "qon-qarindosh" konseptiga berilgan ta'rifni berishdan boshlasak: qon-qarindosh [7] 1.biror ota-onadan tug'ilgan, bir avlodga mansub kishilar (bir-birga nisbatan); qarindosh, qondosh. Demak, qon-qarindosh konsepti har bir tilning leksik qatlami uning fonetik va morfologik qurilishiga nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, asrlar osha xar bir davrga hos o'zgarishlarni o'zida aks ettira boradi. Lekin qon-qarindoshlik termilari leksikaning boshqa terminlariga nisbatan turg'un va kopsevativ bo'lib, manodagi siljishlar (torayish, kengayish)ni hisobga olganda, yaratilgan shakllarini deyarli saqlab qolgan.

O'zbek tili leksikasining negizida aslida turkiy o'ziniki bo'lgan tub turkiy so'zlar tashkil etadi. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibidag ana shu lug'aviy fond turkologiyada umumturkiy so'zlar deb yuritiladi. Bu o'rinda E.Bermatovning "So'zning umumturkiy so'zlar deb yuritiladi. Bu turkiy tilda uchrashi emas, balki by leksikaning aslida bitta turkiy manbaga tegishli ekanligidadir", degan fikrini keltirish joizdir. Demak, umumturkiy so'zlarining barcha turkiy tillarda uchrashi bir turkiy tildan ikkinchi tilga o'tganligini emas, balki ularning bu tillarda juda qadimdan asos til tufayli mavjudligini ko'rsatadi.

Xozirgi o'zbek adabiy tilida saqlangan umumturkiy so'zlar orasida qon-qarindoshlik teriminlar xam bor. Qon-qarindosh terminlarining asosiy o'chog'i oiladan boshlanishi sababli, biz oila leksemasiga o'zbek tiling izohli lug'atida keltirilgan ta'rifni berishadan boshlasak: oila[7] bola-chaqa, honadon; urug', avlod. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga



yashovchi kishilar majmui; honadon. Axir oila. Sanatkorlar oilasi. Oila boshlig'i. [Eshvoy] Kambag'al bo'lishiga qaramay, Yo'lchining oilasiga.. yordam ko'rsatar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. Qon- qarindoshlik [7] esa 1. qarindoshlik, qondoshlik; o'zaro yaqinlik. Sirboy halqlarimizning ulug' do'stligi, qon-qarindoshligi boshlangan kuni bilan tengdosh ekan. Mirtemir, Quyka, Jigarim. Yana bir qarindoshlik [7] - leksemasiga murojaat qilsak: 1.qarindosh ekanlik. Ona tomondan qarindoshlik. Qo'shnimizga qarindoshligini bilaman. 2. Qarindoshlik hos bog'lanish, munosabat; insonlar o'rtasida qon jihatdan bog'lanish. Tojiboy g'o'ldirob, javob berdi:- Olaho'ja mahsum mening tog'am bo'ladi. Ilgari qarindoshlik yo'li bilan uncha-muncha bordi-keldii bor edi. P.Tursun, O'qituvchi. 3. ayn. Qarindoshchilik 1. Eringga aytib qo'y: qarindoshchilik qilmaganimda, xammalaring yotardilaring.. yotadigan joylaringda. T. Malik, Ajab dunyo. Oilaning har bir a'zosi o'z ishi, yumushi bilan mashg'ul. H. G'ulom, Mashal. Birovga qiziqish, oila qurish.. Bu gaplar Zamirani cho'chitar, Ochil uni yomon yo'lga boshlayotganday tuyulardi. P. Qadirov, Uch ildiz.

Bu kabi terminlar qadimiy terminlar sifatida mavjud bo'lib, o'zbek tilida uzoq davrlardan beri qarindosh-urug'chilik munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanib keladi. Bu atamalar badiiy asarlar tilida malum vazifani bajarishga ko'ra muhim ahamiyatga ega.

Umumturkiy asosidagi qon-qarindoshlik terminalari ota (ata), ona (ana), o'g'il (og'ul), qiz (qiz), singil (sinil), aka (aka), kuyov (kuyaygu), xotin (katun), amaki (ama+aka), tog'a (taya+og'a), tog'a (taya+og'a), er (er) va boshqa bir atamalarni keltirish mumkun. Yuqorida takidlaganimizdek, o'zbek tili taraqqiyoti jarayonida umumturkiy so'zlarining ba'zilar saqlangan bo'lsa, ko'pchiligi butunlay istemoldan chiqib ketgan, ayrimlari esa o'zbek xalq shevalari leksikida dialectal meyorida saqlanib qolgan. Masalan, Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk"ida hamda Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan ko'pgina umumturkiy atamalar xozirda istemoldan chiqqan. Chunonchi acha, aba, oboga, ezna, boldiz, uma, uta atamaları o'zbek shevalarida qo'llanib hozirda o'zbek adabiy tilida eskirgan so'z hisoblanadi.

Kuyov atamasi quyidagi shaklda qizning turmush o'rtog'ini ifodalagan. Hozirda bu atama kuyov ko'rinishda shakllanib, ma'no doirasida xam kengaydi. Qizning turmush o'rtog'i manosi bilan birga, umuman, o'zidan kichik yoshdagi ayol qarindoshning turmush o'rtog'iga nisbatan ishlatilmoqda. Shuningdek, yangi uylanayotkan yoki uylagan yigitga nisbatan kuyov atamasi qo'llaniladi.

Xozirgi kunda ota o'g'li (aka), ona atamaları o'z manosida boshqa manolar xam ifodalash uchun qo'llaniladi. Sof o'zbek tili leksik qatlamiga o'zbek tilining mustaqil til bo'lib shakilagan davirda to bugungi kunga qadar yasalgan so'zlar kiriladi. Bu so'zlar faqat o'zbek tilining o'zidan paydo bo'lganligi sababli



umumturkiy xamda o'zlashma so'zlardan farq qiladi. O'zbekcha so'zlarini o'z ichki manbalari asosida yuzaga kelgan. O'zbekcha so'zlarini umumturkiy so'zlar xamda o'zlashma so'zlardan farqli tomonlari bilan birga aloqador jixatlari xam bor. Chunki o'zbekcha so'zlar uchun manba material-negiz bo'lib, turkiy va o'zlashma so'zlar xizmat qilishi mumkun. O'zbekcha so'zlarini yasash uchun xizmat qilgan yasovchi qo'shimcha o'zbek tilining o'z materiali yoki o'zga material bo'lishi mumkun. Shunga ko'ra o'zbekcha qon-qarindoshlik atamalari ikki turga bo'linadi. 1.O'z materiali negizida xosil qilingan terminlar. 2.O'zlashma materiallar asosida xosil bo'lgan atamalar

O'zining ichki imkoniyatlari doirasida xosil qilingan o'zbekcha terminlarining o'zi ikki yo'l bilan yuzaga keladi. 1.O'zbek tilidagi qo'shimchalar yordamida o'zbek tilining o'zida yasalan qarindoshlik atamalari. 2.Umumturkiy atamalar asosida yuzaga kelgan qon-qarindoshlik atamalar: katta ona, katta oyi, oppoq oyi, oppoq dada, opoqi, ich kuyov, o'gay ona, o'gay ota, o'gay bola, kelin oyi, vaqil ota, vaqil ona, qaychi quda, kelin bibi, katta aka, kichik singil, singil aba, bicha, buvicha, katta xotin va shu kabilar. Oppoq oyi, katta oyi atamalari tarixiy asarlarda ikki ma'noda qo'llanilgan: a) ko'p xotinlik davri maxsuli sifatida bir erkak nikoxidagi bir necha xotinlarning eng kattasiga nisbatan qo'llanilgan.,

b) keksa ayol xurmat qilish uchun katta oyi, oppoq oyi deb murojaat qilingan. Xozirgi o'zbek tilida bu atamalar ona yoki otaning onasi manosini kasb etib qolgan.

Bazi atamalar fors-tojik so'zlariga umumturkiy so'zlarii qo'shish orqali yangi qarindoshlik nomlarini yasagan. Jumladan, xolavachcha tog'avachcha amakibachcha, nabira kuyov, nabira kelin kabilar. Mazkur atamalar o'zbek adabiy tili xamda uning shevalarida umumiy ma'noga ega bo'lib, birinchi shaxsga ikkinchi shaxsning kim ekanligini aniqlash zarur bo'lgandagina ishlatiladi. Murojaat etishda shaxs so'zlovchidan katta bo'lsa aka, opa kichik bo'lsa singil, uka, jiyan xamda kelin, o'g'lim, bolam kabi so'zlardan foydalanadilar. O'zbek shevalaridagi qon-qarindoshlikka oid bunday atamalarning manosini bilish ularni to'g'ri ishlatishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Бабушкин А.,П.,Стернин И.,А.,Когнитивная лингвистика и семасиология,-Воронеж: Ритм, 2018.-229 с.
- 2.Гачев Г. Д. Ментальности народов мира – М., 2003. – С. 33.
- 3.Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. - М.: МГУ, 1996. - 245 -с.
- 4.Уорф Б. Л. Лингвистика и логика // Новое в лингвистике. – М., 1980. – С. 183



5.Усманов Ф. Falsafa fanlari doktorligi dissertasiyasi. Andijon., -2020.

6.Потебня Д. М. Образ мира в слове писателя. – Санкт-Петербург, 1997. – С. 67.

7.O'zbek tilining izohli lug'ati.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent.